

HUSAYN VOIZ KOSHIFIYNING IJTIMOY-AXLOQIY QARASHLARI



To'rabayev Orif Abdumajid o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharqning mashhur allomalaridan biri, mutafakkir-ilohiyotchi olim va adib, buyuk axloq muallimi Husayn Voiz Koshifiyning suhbat qurish odobiga oid qarashlari yoritilgan. Shu bilan birga bugungi kunda insonlar o'rtasidagi munosabatlarda ijtimoiy axloqiy masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlari. Indivud, Suhbat odobi, insonparvarlik, "Axloqi Muhsiniy", Sharq, G'arb, adolat

Jamiyatdagi xar bir inson yakka holda yasholmaydi, yolg'izlik odam uchun jazo ko'rinishiga ega holat hisoblanadi. Har bir indivud odamlar orasida o'sadi, ulg'ayadi, hayot kechiradi, butun hayoti davomida xar xil toifadagi ko'plab insonlar bilan ijtimoiy munosabatga kirishadi. Bu insonning kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan kelib chiqadi. Jamoa bo'lib yashashda har bir shaxs turli xarakterga, dunyoqarashga ega o'zi kabi insonlar bilan muloqotga kirishadi. Ana shu jarayonda inson va jamiyat o'rtasida ijtimoiy munosabatlar vujudga keladi. Har bir inson muloqot jarayonida ma'lum bir axloqiy normalarga rioya etgan holda bir biri bilan nutqiy aloqaga kirishadi. Natijada o'ziga nisbatan o'zgalarda ijobiy yoki salbiy ta'sirot qoldiradi va bu ta'sirotlar zamirida muayyan natijaga erishib, qadr-qimmati belgilanadi.

Demak bizning nutqimiz va xulqimiz jamiyatda ma'naviyatli inson sifatida qadr topishimizda asos bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda Sharq mutafakkiri, buyuk axloq muallimi Husayn Voiz Koshifiyning (1440-1505) "Axloqi muhsini" asarida "Suhbat odobi" haqidagi qarashlariga to'xtalib o'tishni joiz deb bildik.

Husayn Voiz Koshifiy suhbat odobi haqidagi fikrlari bugungi kun uchun ham naqadar muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Voiz Koshifiyning fikricha;

"Bilginki, odamzodning sharafiga nutqi bilan va nutq odobiga rioya qilmagan odam bu sharaftan bebahrdir"¹.

Bugun jamiyatimizda nutqning inson sharafiga ulug'lash, ko'kka ko'tarish yoki bo'lmasam uni yerga urish, hattoki ommaning oldida sharmanda qilish darajasiga yetdi desak adashmagan bo'lamiz. Bir gina noo'rin ishlatilgan so'z hattoki davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy siyosiy aloqalarni buzilishiga ham olib kelishi mumkin. OAV hamda ijtimoiy tarmoqlar hattoki qurol darajasida foydalanilmoqda.

Shu o'rinda Voiz Koshifiy muayyan martabaga erishganlar va erishmoqchi bo'lganlar uchun ham rioya qilinishi zarur bo'lgan qoidalarni taklif qiladi. Bular;

Birinchidan: har kimning ahvoliga qarab, munosib so'z aytsin.

Ikkinchidan: dag'allik qilmasin, lutf va muloyimlik bilan gapirsin.

Uchinchidan: gapirayotganda tabassum qilib, ochilib gapirsin.

To'rtinchidan: ovozni baland ko'tarmasin, eshituvchilarga malol kelmaydigan qilib gapirsin.

Beshinchidan; odamlarga nafi tegadigan ma'noli gaplarni gapirsin.

Oltinchidan: agar so'zning qadr-qimmati bo'lmasa, uni tilga olmasin, chunki ulug'larning so'zi bamisoli urug'dir, agar urug' puch yoki chirigan bo'lsa, uni qayerga ekmang unib chiqmaydi.²

¹ Koshifiy Husayn Voiz. Futuvvatnomai Sultoni; "Ahloqi muhsiniy" nashrga tayyorlovchilar: M.Aminov, F.Hasanov. T.: "O'zbekiston milliy ensklapediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2011.-yil.70-b

² Koshifiy Husayn Voiz. Futuvvatnomai Sultoni; "Ahloqi muhsiniy" nashrga tayyorlovchilar: M.Aminov, F.Hasanov. T.: "O'zbekiston milliy ensklapediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2011.-yil.72-b

Har kimning ahvoliga qarab, munosib soʻz aytish, kimgadir soʻz bilan ozor yetkazib qoʻymaslik zarur. Imkon qadar suhbat jarayonida muhtoj insonga muhtojidan (qarzi bor odamga qarz haqida, bemorga, oʻzining sogʻligi haqida, ishsizga ishingiz haqida) gapirishdan saqlanish bizning fikrimizcha yaxshi axloq belgisi hisoblanadi.

Dagʻallik qilmasin, lutf va muloyimlik bilan gapirish, gapirayotganda tabassum qilib, ochilib va ovozni baland koʻtarmasdan, eshituvchilarga malol kelmaydigan qilib gapirish ham har qanday suhbatdoshning koʻnglini koʻtarishga sizning eʼtiborli ekanligingizni bildiradi. Umuman olganda qoʻpollik har qanday insonning yodidan oʻchmaydigan qoʻpol xato hisoblanadi. Muloyim insonlar doimo oʻz suhbatdoshlari bilan yaxshi muloqotni oʻrnata olishadi.

Odamlarga nafi tegadigan maʼnoli gaplarni gapirish befoyda gaplardan tiyilishga sabab boʻluvchi dastlabki omil sifatida qarasak adashmagan boʻlamiz. “Er kishining Islomi behuda narsalarni tark qilish bilan goʻzal boʻladi” (Termiziy rivoyati)¹

Agar soʻzning qadr-qimmatini boʻlmasa, uni tilga olmaslik yoki boʻlmasam oʻrinsiz joydagi foydali gap ham oʻz mavqeyini yoʻqotadi, garchi u haqiqat yoki adolat boʻlgan taqdirida ham.

Husayn Voiz Koshifiy martabaga yetmaganlar suhbat odobi haqida ham quyidagi tavsiyalarni beradi:

Birinchidan: soʻramagunlaricha gapirmasin.

Ikkinchidan: gapirayotganda ovozini baland koʻtarmasin.

Uchinchidan: gapirayotganda oʻng-u soʻliga qaramasin.

Toʻrtinchidan: qattiq gapirmasin va betga choparlik qilmasin.

Beshinchidan; pushaymon boʻlmaslik uchun oʻylab gapirsin.

Oltinchidan: odamlar gapini boʻlib soʻz qotmasin.

Yettinchidan: koʻp gapirmasin. Chunki koʻp gapirish aqli noqislik belgisidir. Oz boʻlsa ham, ammo soz gapirishni shior etsin.

Har bir inson biror kasbga, yoki yangi jamoa bilan ish faoliyatini boshlar ekan bir muncha qiyinchiliklarga duch keladi. Dastlab soʻralmaguncha gapirmaslik hush feʼl insonning belgisi hisoblanadi. Husayn Voiz Koshifiy suhbat jarayonida har bir holatiga alohida eʼtibor bergan holda, noqulayliklarning oldini olish uchun berilgan tavsiyalari bugungi kun uchun ham oʻz taʼsirini yoʻqotmagan. Gapirayotganda ovozini baland koʻtarish va oʻng-u soʻliga qarayverishlik yoningizdagi suhbatdoshingizga hurmatsizlik belgisi sifatida namoyon boʻladi.

Husayn Voiz Koshifiy inson yaxshi xulq, goʻzal (axloq) muomala yoʻlidan yurmay turib izzat va sharaf manzilini egallab olmasligi, hayvonot biyobonidan insoniyat dorulmulkiga yetib boʻlmasligini taʼkidlaydi. Koshifiyning axloqiy qarashlari markazida insonparvarlikka daʼvat turadi va uni juda keng maʼnoda tushunadi. Uning fikricha kishilarning insonparvarlik fazilatiga boʻlgan ehtiyoji suv va olovga boʻlgan ehtiyojdan ham muhimroq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadiganda, Husayn Voiz Koshifiy XV asr Xuroson va Movarounnahr madaniyatining ijtimoiy-axloqiy rivojiga katta hissa qoʻshgan, hamda oʻz asarlari bilan keyingi avlodlarga axloqiy masalalarda insonning maʼnaviy dunyoqarashlarini shakllantirishda sezilarli taʼsir koʻrsatdi desak adashmagan boʻlamiz. Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy”, “Risoi Xotamiya:”, “Anvori Suxayliy”, “Futuvvatnomai Sultoni”, “Tavsiri Husayniy”, “Javohirnoma” kabi asarlarida yaxshilik va yomonlik, adolat, vijdon, burch tushunchalari haqida ham teran fikrlar bildirilgan. Bugungi kunda insonlar oʻrtasidagi munosabatlar globallashuv sharoitida gʻarb madaniyatiga taqlid qilish kuchayib bormoqda. Goʻyoki asl madaniyat faqat gʻarbga xosdek. Shuni yodda tutishimiz kerakki Sharq allomalari inson kamoloti uchun yozib qoldirgan ilmiy asarlarini bugun biz oʻrganib hayotga tatbiq etish choralari koʻrmas ekanmiz jamiyatdagi axloqiy qarashlar gʻarb madaniyatini oʻzlashtirishda davom etaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Choriyev A. Inson falsafasi. Mustaqil shaxs. - T.: Chinor ERK, 2002.
2. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. -T.: Sharq, 2004.

¹ Gazzoliy Abu Homid. Til ofatlari kitobi.-T.: “Sharq”,2018-y 18-b

3. Sharq donishm andlari hikmatlari. / Tuzuvchi Ahad Tursun.- T.: Sharq, 2006.
4. Yusupov E. Inson kam o'lotining m a'naviy asoslari.-T.:Universitet, 1998.